



NATIONAL-CULTURAL CHARACTERISTICS OF THE IDEAS OF THE MANIFESTATIONS OF THE JADIDISM MOVEMENT

Nodira Farkhodjonova

researcher

Namangan Engineering and Construction Institute

Uzbekistan, Namangan

ABOUT ARTICLE

Key words: jadid, Jadid movement, Jadid ideas, National Culture, secular education, national – cultural characteristics.

Received: 26.12.24

Accepted: 28.12.24

Published: 30.12.24

Abstract: The Jadid movement is a social movement based on the Enlightenment, socio – political and cultural reforms of the late 19th and early 20th centuries, in Central Asia. This article highlights the national – cultural characteristics, significance and role of the ideas of the exponents of the jadidism movement today.

JADIDCHILIK HARAKATI NAMOYONDALARI G'OYALARINING MILLIY – MADANIY XUSUSIYATLARI

Nodira Farxodjonova

tadqiqotchi

Namangan muhandislik – qurilish instituti

O'zbekiston, Namangan

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: jadid, jadidchilik harakati, jadid g'oyalari, milliy madaniyat, dunyoviy ta'lim, milliy – madaniy xususiyatlar.

Annotatsiya: Jadidlar harakati – XIX asr oxiri va XX asr boshlarida, Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan ma'rifatparvarlik, ijtimoiy-siyosiy va madaniy islohotlarga asoslangan ijtimoiy harakatdir. Ushbu maqolada jadidchilik harakati namoyondalari g'oyalarining milliy – madaniy xususiyatlari, ahamiyati va bugungi kundagi roli yoritib berilgan.

НАЦИОНАЛЬНО – КУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ИДЕЙ ДЕЯТЕЛЕЙ ДЖАДИДИСТСКОГО ДВИЖЕНИЯ

Нодира Фарходжонова

исследователь

Наманганский инженерно – строительный институт

Узбекистан, Наманган

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Джадид, джадидистское движение, идеи джадидов, национальная культура, светское образование, национально – культурные особенности.	Аннотация: Джадидистское движение-общественное движение, основанное на просветительских, социально-политических и культурных реформах, происходивших в Центральной Азии в конце XIX-начале XX века. В данной статье освещаются национально – культурные особенности, значение и роль идей деятелей джадидистского движения в наши дни.
--	---

KIRISH

Yurtimizda ham ma'rifatparvarlik g'oyalarini keng targ'ib qilishga qaratilgan kurashlar bo'lgan. Xususan, milliy madaniyat takomili va uning yanada rivojlanishida jadidchilik harakatining o'rni beqiyos. Jadidchilik - XIX asrning oxiri XX asrning birinchi choragida Markaziy Osiyo, Qrim, Kavkaz, Volga bo'yi hududlarida shakllanib, yangi zamonaviy maktab, matbuot, teatr, san'at va adabiyot, umuman olganda taraqqiyotning ilg'or usullarini ilgari surishdi. Bu harakat O'rta Osiyo xalqlarining madaniy, milliy-siyosiy jihatdan rivojlanishi uchun alohida ahamiyat kasb etdi.

So'nggi yillarda yurtimizda xalqimizning ijtimoiy-falsafiy, adabiy-badiiy tafakkuri tarixida alohida mavqega ega bo'lgan jadidchilikni o'rganishga katta ahamiyat berilmoqda. Jadidchilikning paydo bo'lish sabablari, rivojlanish jarayoni, undagi ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, milliy g'oyalarini tadqiq qilishga oid ilmiy izlanishlar olib borgan qomusiy olimlarni o'rganish yanada ortmoqda.

ASOSIY QISM

Jadidchilik harakati namoyondalarining asosiy g'oyasi – eski, orqada qolgan jamiyat tuzilmasini yangilash, yangi ilm-fan va madaniyatni qabul qilish, xalqni orqaga ketishdan saqlab qolib taraqqiyot sari safarbar etishdan iborat edi. Jadidlar xalqni o'zini anglashga, milliy qadriyatlarni tiklashga va yangiliklarni, ayniqsa, ta'lim tizimini isloh qilishga chaqirishdi. Jadidlar, o'z asarlarida eski diniy va jamiyatning ko'plab an'alariga qarshi chiqib, ta'limni yangilash, ilm-fanni rivojlantirish, xususan, qizlarning ta'lim olishi, ma'rifatparvarlik, siyosiy va ijtimoiy tenglik, milliy mustaqillik, ijtimoiy erkinlik kabi g'oyalarni ilgari surdi.

Ma'rifatparvarlik bilan bir qatorda, jadidlar ijtimoiy, siyosiy-huquqiy holatlar eski jamiyat tizimini taraqqiyotning eng ilg'or usullari bilan yanada boyitmoqchi bo'lishdi. Bu usul dunyo ahamiyatiga molik insonparvarlik va milliy qadriyatlarga asoslangan jamiyat ehtiyojlari va manfaatlariga xizmat qilgan.

XIX asrning oxirida paydo bo'lgan «jadidchilik» (arabcha «jadid»-yangi) harakati milliy madaniyatning rivojiga katta hissa qo'shdi. Bu harakat mahalliy ziyolilar tomonidan amalga

oshirilgan bo'lib, ular yangi dunyoviy maktablarni yaratishgan. Yangi maktablarni tayyorlash dasturi tarix, arifmetika, geografiya, ona tili kabi fanlarni o'z ichiga olgan. XX asrning boshlarida jadidlar o'z adabiyotlari, gazeta va jurnallari orqali o'quvchilarni dunyodagi voqealardan xabardor qilishdi, savdo, bank, sanoat, qishloq xo'jaligini rivojlantirish masalalari bo'yicha o'z fikrlarini bildirishdi.

Jadidchilikning mohiyati millatni qoloqlik, xurofot botqog'idan olib chiqibgina qolmasdan, mustaqillikka erishish, ya'ni milliy davlatni barpo etish mumkinligini asoslashdan iborat bo'lgan. Bunda ularga «Haq olinur, berilmas» va «Najot ilmi urfonda» shiorlari dasturilamal bo'lgan.

Jadidchilik ma'rifatparvarlik davri olimlari Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Ahmad Donish, M.Behbudiy, A.Avloniy, Cho'lpon, Fitrat va boshqalar o'zlarining ma'rifatparvarlik ishlari bilan milliy madaniyat rivojiga katta ta'sir o'tkazishdi. Ular yangi dunyoviy bilimlar bilan yo'g'rilgan turli gazeta va jurnallar nashr etishdi, nashriyot va bosmaxona, kutubxona, dunyoviy bilimlar o'qitiladigan yangi matablar ochishdi, o'tmish madaniyatimizni, tariximizni yoritib beruvchi teatrlar tashkil etishdi. Xususan, Mahmudxo'ja Behbudiy jamiyatdagi modernizatsiya negizida jamiyat taraqqiyotini ko'radi: «...maktabimiz, do'konimiz, korxonamiz, madrasamiz va shu kabi boshqalar zamonaviy islohotga muhtojdir. Aks holda, har narsa qo'ldan ketadi, bizda mardikorlikdan boshqa ish qolmas. Bir uskuna, do'kon va saroyini ishlatishga ham zamonaviy ilm va zamon yangiligini bilish lozim»[1]. Yetuk alloma insonni zamonaviylik va jahon madaniyatidan xabardor bo'lishi uchun matbuot va teatr zarurligini yoqlab chiqadi. Behbudiyning o'zi ham bu sohada o'zbek dramaturgiyasining birinchi «Padarkush» dramasini yaratib, uning misolida jaholat va nodonlik bir oilaning parokanda bo'lib ketishiga sabab bo'lganligini ochib beradi.

Jadid harakati namoyondalari asarlarida milliy va ijtimoiy ongni uyg'otish masalasi juda muhim o'rin tutgan. Milliy o'zlikni anglash, xalqning tarixini, madaniyatini saqlash va yangi davrga moslashtirish asosiy g'oyalardan biri edi. Shuningdek, jadid yozuvchilari o'z asarlarida xalqni yangi hayotga chaqirish, ta'limni isloh qilish, yangi ijtimoiy qarashlarni rivojlantirishga katta ahamiyat berdilar.

Biroq o'sha davrda ham Yevropa madaniyatining milliy madaniyatimizga ta'siri mavjud edi. O'z davrida ulug' ma'rifatparvar Abdulhamid Cho'lpon Yevropaning axloqsiz illatlari insonni xonavayron, bewatan, qul qilishini ta'kidlab, bu borada shunday kuyingan edi: «Ey qarindoshlar. Shaharlik bo'ldik. Bo'ldik. Ammo qishloqlilardan katta iltimosimiz shuldirki, Ovro'pa mudasidan shishasidan, buzuq axloqidan namuna olmasdan va bularga bul jihatdan taqlid qilmasdan, balki ilm-fan, hunar, sanoatga o'xshashlik madaniyatlardan namuna olib, bul jihatdan taqlid qilmog'imiz lozimdur. Bundan saqlaningiz... Ovro'paning maktab, madrasa, ilm, fan, san'at, hunarga o'xshash madaniyati sizlarni ozod, ma'mur, olim qilib, johillikdan, asorat-qullikdan

qutiltiradur. Birodarlar ko‘zlaringni ochib, yaxshi o‘ylanglar...»[2]. Ushbu davr ma’rifatparvarlik harakati asnosida xalqning umummilliy madaniyati ham rivojlanib, taraqqiy etdi.

Ilm – fanga bo‘lgan qiziqish, islom dinining kirib kelishi, jadidchilik harakati namoyondalari faoliyati milliy madaniyat takomili va axloqiy rivojlanishda yangi bosqichga ko‘tarilgan.

Jadidchilik harakati namoyondalari madaniyatni avvalo kishilarning ilmni egallagash darajasi bilan bog‘lashadi. Xususan, ular jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashgan fidoiylardir. Ma’rifatparvar olimlardan biri bo‘lgan Furqat ilm-fan bir mash’al bo‘lib, insoniyatning baxt-saodat yo‘lini yoritib turishini, inson qanchalik ilm egallasa, uning kelajagi shunchalik porloq bo‘lishini ta’kidlaydi. Bu uning quyidagi baytlarida ham o‘z ifodasini topgan:

«Jahon bastu kushodi — ilm birla!

Nadur dilni murodi — ilm birla!

Ko‘ngullarni sururi — ilmdandur!

Ko‘rar ko‘zlarni nuri — ilmdandur!

Kerak har ilmdan bo‘lmak xabardor!

Bo‘lur har qaysi o‘z vaqtida darkor!»[3].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Samarqandda yashab, ijod etgan “o‘nlab ma’rifat fidoiyalarining qoldirgan o‘lmas merosi bugungi kunda ham ma’naviyatimizni yuksaltirish, yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda”[4], deb ta’kidlaydi.

Jadidchilik harakatining faoliyati maktabdan, maorifdan boshlangan, so‘ng matbuot, san’at va siyosatga o‘tgan. Jadidchilik harakati qoloqlik va jaholat, o‘lka aholisining ayanchli ahvoli, Turkistonning Yevropa va jahon sivilizatsiyasidan orqada qolib ketishi, islom va shariatning oyoq osti qilinishi va bunday og‘ir hayotdan qutulish, erk va ozodlikka erishish uchun o‘z zamonasining ilg‘or ziyoli qatlamlari qarashlarida vujudga keldi. Jaholat uyqusidan uyg‘onish, tarixiy zaruratga aylangan edi. Boshqacha qilib aytganda, jadidchilik harakati ijtimoiy rivojlantirishning, tarixiy taraqqiyotning talab va ehtiyojlariga javob sifatida maydonga kelgan ulkan ijtimoiy - siyosiy harakat edi. O‘lkada millatning dard-alamlarini, butun ayanchli, mudhish, fojiali og‘ir qismatini o‘z qalbi va vujudidan o‘tkazib, o‘zining butun borlig‘ini, aql-zakovatini, ongini, hayotini erk, ozodlik, taraqqiyot uchun safarbar etgan ziyolilarning butun bir yangi avlodi shakllana boshladi[5]. Jadidchilarning poydevori, tamal toshi - "usuli jadid" maktabi edi. Ushbu maktabda asosan tarix, jug‘rofiya, iqtisod, fizika, kimyo, matematika kabi zamonaviy fanlar o‘qitilgan. Jadidlar avvalo o‘zlari ham moddiy jihatdan o‘zlarini hisobidan kitoblar nashr etib bu soha rivojiga katta hissa qo‘shishgan. Ular shu asnoda Yevropa madaniyatini ham o‘rganishgan. Biroq, bundan 120 yil oldin aytilgan ulug‘ ma’rifatparvar jadid ziyolisi Ismoil Gaspiralining: «Ovro‘po bir kekso choldir, tajribasi ko‘pdir. Ulug‘ yoshiga hurmatimiz bor. Tajribasidan o‘rganamiz. Lekin xatolarini

takrorlamaymiz.... Ovro'poda nimani ko'rsak, yosh boladek olib o'gurmaymiz. Esli hushli insonlardek «Bu nimadir? Oqibati nima bo'ladi?». Vijdon va haqqoniyatga uyg'unmi? deya aql tarozisiga tortib olamiz»[6] kabi so'zlari bizning bugungi kunimizda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Buning uchun esa biz jamiyatimizda ro'y berayotgan globallashuv jarayonlarini ongli ravishda anglab yetishimiz va idrok etib to'g'ri xulosa chiqarishimiz lozim bo'ladi. Shundagina biz o'zgarishlar zamonida yashayotgan bir davrda o'z milliy madaniyatimizni asrab – avaylashimiz va rivojlantirishimiz mumkin.

Shuningdek, jamiyat taraqqiyoti uchun tilni ham mukammal bilmoq kerak. Bu borada Behbudiy 1913 yil "Oyina" jurnalida yozgan "Ikki emas to'rt til lozim" maqolasida shu xaqda so'z yuritadi. Tilimiz turkiy, madrasalardagi shariy va diniy kitoblar arabiy, nazm va nasr kitoblari esa forsiydir. Turkistonda qadimdan beri bu uch til joriy bo'lib kelgan. Saodatki, turkiy va forsiyni taxsilsiz ham bilamiz, o'zaro gaplashamiz, tushunamiz, deydi Bexbudiy. "Bank va sudxonalar, sud mahkamalari, notarius, temir yo'l, xulosa, zamonni paydo qilgan har bir yangi nimarsalarig'a muhtoj bo'lsak avvalgi qadamda ruscha bilmoq lozim kelur... Bu zamon tijorat ishi, sanoat va mamlakat ishlari, xatto dini islom va millatg'a xizmat ilmsiz bo'lmaydur. ...Xulosa, bugun bizlarga to'rt tilga tahrir va taqdir etguvchilar kerak, ya'ni arabiy, rusiy, turkiy va forsiy"[7].

So'nggi yillarda jadidlar hayoti va ijodini o'rganishga bag'ishlangan san'at sohasida ko'plab kinofilmlarni ham uchratishimiz mumkin. Masalan, 2019 yil o'zbek kino tarixida ilk marotaba o'zbek jadidlari hayoti haqida hikoya qiluvchi yangi kino ma'rifatparvar, shoir va jamoat arbobi Abdulla Avloniy faoliyatiga bag'ishlangan «Avloniy» nomli badiiy filmining sur'atga olinishi muhim amaliyotlardan biridir. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning: «...biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi»[8], - deb alohida qayd etgani bejiz emas. Mazkur filmida millatimizning milliy madaniyati rivoji uchun kurashgan ma'rifatparvar Abdulla Avloniy obrazi o'sib kelayotgan yosh-avlod ongi va qalbida mustamlakachilik davrida yashab, faoliyat yuritgan, o'z millati taqdiri va yurt istiqboli uchun kurashgan ziyolilarning hayoti bilan yaqindan tanishib, milliy tariximizni o'rganish, yurti himoya qilish har birimizning fuqarolik burchimiz ekanligini singdiradi.

Shu bilan birga, milliy qahramonlarimiz, xususan jadidchilik harakati ma'rifatparvarlari xotirasini abadiylashtirish g'oyalarini hayotga tatbiq etish maqsadida «O'zbekkino» Milliy agentligi tomonidan «Mahmudxo'ja Behbudiy», «Muqimiy» kabi kinofilmlar ham g'oyat qimmatli ahamiyatga egadir.

XULOSA

Jadidchilik harakati olimlarining gʻoyalari va qarashlari, taʼlimotlarini tahlil qilish va baholash, taʼsir doirasini oʻrganish, hozirgi sharoitda milliy mentalitetimiz, yashash sharoitimizga yot boʻlgan zararli gʻoyalarni mohiyatini yoritish, uning salbiy holatlarni oldini olish hamda bartaraf etish imkonini beradi. Bu esa, jamiyat aʼzolarida milliy tafakkur va sogʻlom dunyoqarashni shakllantirish orqali ilm-fanni qoʻllab-quvvatlash hamda uning gʻoyalaridan milliy taraqqiyotda keng foydalanishni taqozo etishi bilan bogʻliq.

Jadid harakati namoyondalari moddiy-maʼnaviy qiyinchiliklar, gʻoyaviy-siyosiy tazyiqlarga qaramay oʻz jonlarini fido qilib millatning milliy-maʼnaviy yuksalishi, ijtimoiy erkinligi uchun harakat qildilar. Tarixning murakkab, masʼuliyatli burilish davrida millatning ongini yuksaltirish, milliy iftixor tuygʻusini kuchaytirish birinchi darajali vazifalardan ekanligini anglab yetganliklari uchun ham bor kuch va gʻayratlarini ishga soldilar, nma boʻlishidan qatʼiy nazar ushbu yoʻldan qaytmadilar, soʻnggi nafaslarigacha oʻz maqsadlari tomon intildilar. Jadidlarning ushbu harakatlarini oʻrganish va gʻoyalarini milliy yuksalish yoʻlida targʻib qilish har bir ziyolilar qatlaminig asosiy vazifasi desak mubolagʻa boʻlmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Behbudiy M. Ehtiyoji millat // Samarqand. – Samarqand, 1913, 12 iyul.
2. Abdulhamid Choʻlpon. Vatanimiz Turkistonda temir yoʻllar // Vatan. –Toshkent, 1994. - №36. –B.4.
3. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/manaviyat-yulduzlari/furqat-2/?ysclid=l2kx0kuw2>
4. М.Мирзиёев. Буюк келажегимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курамыз. Тошкент. “Ўзбекистон”. 2017. 178-бет
5. Solijon Ergashevich Ibragimov JADIDCHILIK HARAКATI // ORIENSS. 2021. №3.
6. Behbudiy B."Ikki emas, toʻrt til lozim", "Oyina" jurnali, 1913 yil 10 avgust, №1. Tanlangan asarlar. Jild-I.-T.: Akademnashr, -2018yil 396-bet.
7. Qosimov B. Milliy uygʻonish. –Toshkent: Maʼnaviyat, 2002. –B.33.
8. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // “Xalq soʻzi” gazetasi, 2020 yil 25 yanvar, №19 (7521).
9. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining «Maʼrifatparvar jadidchilik harakati namoyandalarini mukofotlash toʻgʻrisida»gi 2020 yil 20 oktyabrdagi Farmoni // «Xalq soʻzi» gazetasi, 2020 yil 1 oktyabr, №207 (7709).